


BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIYASI TARIXIGA NAZAR.



Usmonov Romozon

Nabiyeva N.K.

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti.

Annotation: Buxoro amirligi O‘rtta Osiyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida o‘z davrida xalqaro munosabatlар va diplomatik aloqalarda muhim rol o‘ynagan. Ushbu mavzu Buxoro amirligining diplomatiyasi tarixiga bag‘ishlanib, uning qo‘shni davlatlar, Rossiya imperiyasi, Xitoy va xonliklar bilan bilan bo‘lgan siyosiy aloqalarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, diplomatiya, xalqaro munosabatlар, elchilik, savdo yo‘llari.

Buxoro amirligi Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan muhim o‘rin tutgan davlatlardan biri hisoblanadi. Uning xalqaro maydondagi o‘ziga xos diplomatik faoliyati amirlikning mustaqilligini saqlab qolish, ichki barqarorlikni ta’minlash va savdo yo‘llarini rivojlantirish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, qo‘shni davlatlar va kuchli xalqaro o‘yinchilar – Rossiya imperiyasi, Xitoy va Britaniya bilan olib borilgan aloqalar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxoro amirligi diplomatiyasining asosiy xususiyatlari uning xalqaro munosabatlар sohasida ikki asosiy yo‘nalishga – diniy hamjihatlik va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Bir tomonidan, musulmon dunyosiga asoslangan diniy birdamlikni targ‘ib qilgan amirlik, boshqa tomonidan, Rossiya, Britaniya, Afgoniston, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar bilan

manfaatli savdo va siyosiy aloqalarni rivojlantirish orqali o‘z geosiyosiy mavqeini mustahkamlashga harakat qilgan.

Buxoro-Rus podshohligi munosabatlari: Buxoro-Rossiya munosabatlari XVIII-XIX asrlarda rivojlanib bordi.Bunda Buxorodan Rossiyagd bir necha marta junatilgan Ernazar Maqsudov boshchiligidagi elchilik missiysi sabab boldi. XIX asr boshida Rossiyadan Buxoroga yuborilgan elchilararning soni kop emas edi. 1804 yili Buxoroga yuborilgan rus elchilar Gaverdovskiy yolda qaroqchilarga duch kelib,maqsadga yetolmay orqaga qaytishga majbur boladi.

1809- yili podshoh Aleksandr I nomidan Orenburg general-gubernatori tomonidan Buxoroga yuborilgan Subhonqulov boshchiligidagi missiya yuboriladi.Rus-fransuz urushi davrida Buxoro bilan Rossiya ortasida nafaqat elchilik, balki karvon yo‘llaridagi qaroqchilikning kuchayib ketganligi tufayli o‘zaro savdo aloqalari ham ancha qisqarib qolgan edi.

Rossiya tashqi ishlar vaziri Andrey Budberg 1806-yil 19-noyabrda amir Haydar nomiga bitilgan maktubni topshiradi.1818-yilda Buxorodan Rossiyaga Azimjon devonbegi boshchiligidagi elchilar muzokalarlar o‘tzazish maqsadida Peterburgga yuboriladi.Rossiya mazkur ekchilikka javoban 1820-yilda Rossianing Tehrondagi diplomati A.F.Negri boshchiligidagi elchilik missiyasini yuboradi.[1.210 B]

1833-yili Vasiliy Perovskiy Orenburg general-gubernatori etib tayinlangach, Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga faol harbiy harakatlari boshlanadi. Pyotr Perovskiy Buxoroning siyosiy ahvolini, uning ichki va tashqi savdosini bilishga qiziqib, Orenburg savdosini o‘rganib chiqadi. Shu maqsadda u Buxoroga maxfiy ko‘rsatma bilan Pyotr Demezonni elchi qilib jo‘natadi. Elchi Buxoroning Rossiyaga munosabati masalasini va O‘rta Osiyoning boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini o‘rganishi kerak edi. Pyotr Demezon mulla kiyimida, Mulla Ja’far ismi bilan Buxoroga kelgan. Tarjimonlik va o‘qituvchilik faoliyati uning sharq tillari, urf-odatlari va sharqona odob borasidagi bilimlarini doimo takomillashtirib borishga imkon yaratgan

hamda Sharq mamlakatlarida sodir bo‘layotgan voqealardan doimo xabardor bo‘lib turishiga yordam bergan. Pyotr 1833–1834-yillarda Buxoroda bo‘lib, Buxoro tarixi bilan bog‘liq ko‘p ma’lumotlarni yig‘gan. Keyinchalik bu xabarlar tarixchi Naftula Xalfin tomonidan nashr qilingan. Konstantin Butenev boshchiligidagi josuslik missiyasining asosiy maqsadi Buxoro va unga qo‘shni mamlakatlar to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashdan iborat edi. Amir Nasrullo Yevropa davlatlarining shubhali takliflariga asosli ravishda ishonmay, Usmonli turk sultonligi bilan aloqalarni faollashtirishga intiladi. Biroq Usmonli turk sultonligi va Eronga yuborilgan elchilar ko‘zlangan maqsad (Yevropa davlatlarining agressiyasiga qarshi islom davlatlarining ittifoqini tuzish)ga erisha olmay, orqaga qaytishga majbur bo‘ladi. [2.78B]

Buxoro-Turkiya munosabatlari:

Mang‘itlarning Rus hukumati bilan o‘zaro kelishmovchiliklaridan foydalangan Usmoniylar davlati ularni ruslarga qarshi ittifoqqa tortishga harakat qildi. 1789-yilda Shohmurodning elchisi Muhammad Badi Istanbulga boradi. U keltirgan maktubda Eron ustidan shikoyat qilinib, uning Turonlik ziyyoratchilarni haj safariga borishlariga to‘sinqilik qilayotgani bildiriladi. Shohmurod, shuningdek, Usmoniylar Rossiya bilan urushda yutib chiqishiga umid bildirib, g‘alabaga erishilganida, o‘rtada tuzilajak tinchlik shartnomasida Rossiyaning Buxoroga hujum qilmasligi haqidagi bandni kiritishni taklif etadi. Usmoniylar sultoni Salim III (1789–1808) Buxoro amiri Shohmurodga xat yo‘llab, Rossiyaga qarshi urush boshlaganini, bu urushga Dog‘iston xalqlari, cherkes, abxaz qabilalari va qabartoy xalqlari shay turganini hamda Buxoro hukmdori ham bu urushga bosh qo‘shishi kerakligini bildirgan. Lekin amir sultonning bu taklifini qabul qilmaydi. U bu orqali Rossiya bilan munosabatlar yomonlashuvining oldini olmoqchi edi. [3.46 S]

Shu masalada 1796-yil u Rossiyaga elchi yuborib, Usmoniylar taklifini qabul etmaganini bildirgan. Amir Shohmuroddan keyin Buxoro taxtiga chiqqan amir Haydar Usmoniylar bilan aloqalarni davom ettirishga harakat qilgan hamda taxtga

chiqqanligini bildirish uchun Eshmuhammad devonbegi va Mirza Muhammad Yusufni Istanbulga yuborgan.

Buxoro-Angliya munosabatlari:

XIX asrning birinchi yarmida ingliz-rus munosabatlari juda keskinlashib ketdi. Bunga Angliya va Rossiyaning yangi yerlarni istilo etishga faol va muntazam intilishlari, o‘z mollarini sotish bozori uchun kurash va yangi daromadli xomashyo zahiralarini izlab topish yo‘lidagi harakatlari sabab bo‘ldi. Bu esa ularning Turondagi manfaatlari to‘qnashuviga olib keldi. Amir Nasrullo Buxoroda hukmronlik qilgan yillarda Rossiya va Angliyaning mintaqadagi manfaatlari toqnashgan davr deb hisoblanadi. XIX asrning 20-30 yillarida Buxoroda bolgan A.Byorns va G.Vamberining yozishicha amir hukmronligining dastlabgi yillarda Rossiya va Angliyaga nisbatan ochiq siyosat yuritgan. Amir Nasrulloh ingliz siyosatdonlarining asl niyatini payqagach, ularga nisbatan xayrixoh siyosatini ozgartirgan. [4.42S]

Buxoroga kelgan quyidagilar Ost-Indiya kompaniyasi maxfiy topshiriqlarini bajardilar:

Uilyam Murkroft, Jorj Trebek (1821–1825);

Aleksandr Byorns (1831–1832);

Charlz Stoddart, Artur Konolli (XIX asrning 30-yillari)

O‘zining surbet qiliqlari va dimog‘dorligi, takabbur va kalondimog‘ligi, sharqona diplomatiya qoidalarini nazar-pisand qilmaganligi (Ark oldidan ot minib o‘tishi, rasmiy qabul marosimida o‘zini tuta olmasligi va boshqalar) oqibatida amirning farmoni bilan polkovnik Charlz Stoddart zindonga tashlanadi va 1842-yil 17-iyunda boshqa ingliz zobiti Artur Konolli bilan birgalikda Buxoro shahrida qatl qilinadi. Buxoro ulamolari har ikki ingliz zabitiga ular islom dinini qabul qilishsa, gunohlari kechirilishi va o‘zlari tirik qolishlarini aytishganda, ingliz zabitlari rad javobini

berishgan. Ingliz zabitlarining o‘ldirilishi amir Nasrulloning Yevropa davlatlari, xususan, Angliya bilan munosabatlari darz ketishiga sabab bo‘ladi. [5. 68S]

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligining diplomatiya tarixi Markaziy Osiyoning murakkab siyosiy jarayonlari va xalqaro munosabatlarida muhim o‘rin egallaydi. Amirlikning tashqi siyosati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llarini nazorat qilish, madaniy aloqalarni rivojlantirish hamda hududiy mustaqillikni saqlashga qaratilgan edi. Diplomatik aloqalar Buxoroni nafaqat mintaqadagi, balki xalqaro sahnadagi nufuzli o‘yinchiga aylantirdi.

Buxoro amirligi tarixidan saboq olib, uni chuqur o‘rganish milliy merosimizni anglash va xalqaro munosabatlarda o‘z o‘rnimizni mustahkamlash uchun bebafo manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Zamonov. A.Egamberdiyev. “Buxoro amirligi tarixi”. Toshkent-2022
2. B.S.Mannonova “O‘zbek diplomatiyasি tarixidan”. Toshkent-2003
3. J.Shodihev. “Buxoro amirligi davlatchiligining rivojlanishi”. Toshkent-2010
4. Q.Rajabov. “Amir Nasrulloh Bahodurxon yoxud xoni shahid”
5. R.Alimova. “O‘rta Osiyo davlatlarining qoshni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisaodiy aloqalari”. Toshkent-2017